

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 7 | **2026**
ISSUE 1

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 7, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 7, ISSUE 1



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети профессори (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси профессори,
филология фанлари доктори (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети, фалсафа доктори (PhD) (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессори, филология фанлари
доктори, (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

УСМАНОВ ИБРОҲИМ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний
Номидаги Шарқшунослик институти катта илмий ходими,
тарих фанлари номзоди, доцент (Ўзбекистон)

АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети профессори
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ҲЕЛАЛ АБДЕЛПРАЗЕК САДЕК АБДЕЛПРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
профессор в.б., фалсафа фанлари доктори (Dcs) (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети профессор в.б, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

AMIROV AZAMAT ODIL O'G'LI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi
O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha
Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori o'rinbosari
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Х.Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

Профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета
Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академик Академии наук Узбекистана,
Академии искусств Узбекистана, доктор
искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Профессор Центра евроазиатских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ИСФТ, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Профессор Международной исламской академии
Узбекистана, доктор филологических наук (Узбекистан)

КЛЕР РОСИЕН

Йельский университет, доктор философии PhD (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Профессор Университета CEU Сан-Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Профессор Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор филологических наук (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

УСМАНОВ ИБРОХИМ

Старший научный сотрудник Института востоковедения
имени Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана,
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

АХМЕД МУСА АБДЛАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Профессор Национального университета Казахстана
имени Аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

Профессор Андижанского государственного
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Профессор Наманганского государственного технического
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛЬБАР ИРГАШЕВНА

И.о. профессора Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (DSc) (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Профессор Навоийского государственного педагогического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

ЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

И.о. профессора Наманганский государственный университет,
доктор философских наук (PhD) по социологии (Узбекистан)

АМИРОВ АЗАМАТ ОДИЛ УГЛИ

заместитель директора координационно-методического
центра по вопросам новейшей истории Узбекистана при
Академии наук Республики Узбекистан, доктор
философских наук (PhD), доцент

ОДИНАЕВА ЗЕБИНСО ИБРОХИМОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философии (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРАД ОГЛИ

PhD докторант Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Х. Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan, Academician
of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan)

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Professor of International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

USMANOV IBROHIM

Associate Professor of Abu Rayhon Beruniy Institute
of Oriental Studies, Academy of Sciences of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences (Uzbekistan)

AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD (Arab Republic of
Egypt)

MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Professor of Andijan State University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

FAYZIKHODJAYEVA DILBAR IRGASHEVNA

Acting Professor of the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

Professor of the Navai State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Acting Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences
(Uzbekistan)

AMIROV AZAMAT ODIL UGLI

Deputy Director of the Coordination and Methodological Center for
the Latest History of Uzbekistan under the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in
Philosophical Sciences, Docent

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Kh.Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Norov Toji Omonovich ALISHER NAVOIY FALSAFASIDA IQTISODIY MASALALARINING GUMANISTIK TALQINI.....	7
2. Нилуфар Абдурахмонова Зайнобиддин кизи, Шамсиева Гульшода Аслиддин кизи АНАЛИЗ КОНТЕКСТНО-ЗАВИСИМЫХ ЕДИНИЦ В МАШИННОМ ПЕРЕВОДЕ НА ОСНОВЕ ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА (НА ПРИМЕРЕ ПЛАТФОРМЫ PARATRANSLATOR.UZ).....	14
3. Tangirov Nizom Abduraxmonovich, Kadirova Guzal Nuritdinovna OLIM MAMAJON RAHMONOVICH RAHMONOVNING O‘ZBEK TEATR SAN’ATI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.....	21
4. Амиров Азамат Одил угли СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА.....	26
5. Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li SOVET ORIYENTALIZMI VA TARIXIY XOTIRANING MAFKURAVIY REKONSTRUKSIYASI: SOVET KINOSIDA ALISHER NAVOIY OBRAZINING TALQINI...33	33
6. Israfilov Doston Omonulla o‘g‘li PRINCIPLES FOR DETERMINING INTERLEVEL GRAMMATICAL MINIMUMS IN TEACHING UZBEK TO ENGLISH SPEAKERS.....	41
7. Xo‘jaqulova Munira Islom qizi FALSAFA VA DIN INSON MA’NAVIYATINING ASOSI.....	48
8. Bekchanova Manzura Shuxratovna IGNATS GOLDZHERNING “SAHIHI BUXORIY” ASARIGA OID TADQIQOTI.....	60
9. Archabayeva Nargiza Nasimovna LINGVOTEJAMKORLIKNING NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI DOIRASIDA PRAGMATIK IFODALANISHI.....	66

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Archabayeva Nargiza Nasimovna**

O‘zbekiston Milliy universiteti

“Amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik” kafedrası

o‘qituvchisi

E-mail: archabayeva@gmail.com

**LINGVOTEJAMKORLIKNING NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI DOIRASIDA
PRAGMATIK IFODALANISHI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21007873>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada lingvotajamkorlikning nutqiy aktlar nazariyasi doirasidagi pragmatik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda til tajamkorligining nutqiy muloqot jarayonida qanday namoyon bo‘lishi, uning lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar bilan o‘zaro munosabati nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Muallif nutqiy aktlar nazariyasining asosiy qoidaloriga tayangan holda lingvotajamkorlikning bevosita va bilvosita nutqiy aktlardagi ifodalanish xususiyatlarini tahlil qiladi.

Maqolada til birliklarining qisqarishi, ellipsis, implitsitlik, sukut va pauza kabi vositalar orqali nutqning pragmatik samaradorligi ta‘minlanishi badiiy matnlar misolida ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, nutqiy aktlar nazariyasida bevosita va bilvosita nutqiy aktlar tushunchasining ahamiyati, ularning kommunikativ maqsad hamda nutqiy ifoda shakli bilan bog‘liq jihatlari ilmiy tahlil qilingan. Ayniqsa, poetik matnlarda lingvotajamkorlikning illokutiv kuchni saqlagan holda perlokutiv ta‘sirni kuchaytirishi, estetik va emotsional ta‘sirchanlikni oshirishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: lingvotajamkorlik, nutqiy aktlar, nutqiy aktlar nazariyasi, matn pragmatikasi, diskurs tahlil, poetik nutq, ellipsis.

Archabayeva Nargiza NasimovnaTeacher at the Department of “Practical English and
Literary Studies” of the National University of Uzbekistan

E-mail: archabayeva@gmail.com

**PRAGMATIC EXPRESSION OF LINGUISTIC ECONOMY WITHIN THE
THEORY OF SPEECH ACTS****ANNOTATION**

This article analyzes the pragmatic features of linguistic economy within the framework of speech act theory. The study examines how linguistic economy manifests itself in the process of communication and explores its relationship with locutionary, illocutionary, and perlocutionary acts from both theoretical and practical perspectives. Drawing on the fundamental principles of speech act theory, the author investigates the characteristics of linguistic economy in direct and indirect speech acts.

Using examples from literary texts, the article demonstrates how the pragmatic effectiveness of speech is achieved through such devices as reduction of linguistic units, ellipsis, implicitness, silence, and pauses. Furthermore, the significance of direct and indirect speech acts within speech act

theory is scientifically analyzed, with particular attention paid to their relationship with communicative intention and forms of speech expression. Special emphasis is placed on the role of linguistic economy in poetic texts, where it preserves illocutionary force while enhancing perlocutionary impact, thereby increasing the aesthetic and emotional expressiveness of discourse.

Keywords: linguistic economy, speech acts, theory of speech acts, text pragmatics, discourse analysis, poetic speech, ellipsis.

Арчабаева Наргиза Насимовна

Преподаватель кафедры “Практического
английского языка и литературоведение”
Национального университета Узбекистана
E-mail: archabayeva@gmail.com

ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ПРИНЦИПА ЯЗЫКОВОЙ ЭКОНОМИИ В РАМКАХ ТЕОРИИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются прагматические особенности лингвоэкономии в рамках теории речевых актов. В исследовании рассматриваются способы проявления языковой экономии в процессе речевой коммуникации, а также её взаимосвязь с локутивными, иллюкутивными и перлокутивными актами. Опираясь на основные положения теории речевых актов, автор анализирует особенности реализации лингвоэкономии в прямых и косвенных речевых актах.

В статье на примерах художественных текстов показано, каким образом прагматическая эффективность речи обеспечивается посредством таких средств, как сокращение языковых единиц, эллипсис, имплицитность, молчание и пауза. Кроме того, научно обоснована значимость понятий прямых и косвенных речевых актов в теории речевых актов, а также рассмотрены их связи с коммуникативной целью и формой речевого выражения. Особое внимание уделяется тому, что в поэтических текстах лингвоэкономия, сохраняя иллюкутивную силу высказывания, усиливает его перлокутивное воздействие, а также повышает эстетическую и эмоциональную выразительность речи.

Ключевые слова: лингвоэкономия, речевые акты, теория речевых актов, прагматика текста, дискурсивный анализ, поэтическая речь, эллипсис.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Inson jamiyati taraqqiyotida muloqot asosiy ijtimoiy ehtiyojlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonning yetakchi vositasi bo‘lgan til inson ongida shakllangan fikr va his-tuyg‘u hamda turli ijtimoiy munosabatlarni nutq vositasida voqelantirish yoki ularni qog‘ozga tushirish faoliyatini amalga oshiradi. Shu jihatda, tilni faqat lug‘aviy birliklar yig‘indisi emas, balki amaliy faoliyatlarni ta‘minlovchi kommunikativ mexanizm sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Odatda muayyan gap tashqi shakl jihatidan oddiy lisoniy birlik sifatida ko‘rinish bersa-da, pragmatik nuqtai nazardan u butunlay boshqa vazifani amalga oshirishi mumkin. Masalan, Eshik ochiq qolibdi jumlasida sodda ko‘rinishga ega bo‘lgan gap sifatida muayyan holat haqida ma‘lumot yetkazuvchi darak gapdan boshqa narsa emas. Biroq, kommunikativ vaziyat va muloqotdoshlararo munosabat, shuningdek, intonatsiya va pragmatik sharoitga ko‘ra u eshikni yop, e‘tiborli bo‘l (eshik ochiq qoldi), xona sovuq kabi tagma‘nolarga ham ishora qilish holatlari mavjud. Demak, gapning mazmuni faqat uning grammatik shakli yoki lug‘aviy tarkibi bilan cheklanib qolmasdan, nutqiy vaziyatda turli kommunikativ vazifalarni amalga oshiradigan ko‘p qatlamli birlik sifatida namoyon bo‘ladi [1,288.]. Shu jihatdan, har qanday gap tarkibida semantik ma‘no bilan bir qatorda pragmatik mazmun, ya‘ni adresant nutq intensiyasi hamda muayyan ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi muloqotdoshlarning o‘zaro munosabatlarni aks ettiruvchi qo‘shimcha yashirin mazmun ham mavjud bo‘ladi. Natijada, gap til tizimining statik elementi emas, balki muloqot jarayonida faol harakatlanuvchi, ma‘lumot yetkazuvchi va ta‘sir ko‘rsatuvchi dinamik nutqiy birlik sifatida baholanadi. Aynan mana shu xususiyatlar til birliklarining

amaliy-qi'lanish tabiatini ochib beruvchi nutqiy aktlar nazariyasining shakllanishiga asos bo'lgan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Til birliklarining bunday tabiatini ilmiy jihatdan yoritgan yo'nalishlardan biri nutqiy aktlar nazariyasidir. Ushbu nazariyaga ko'ra, inson gapirish orqali suhbatdoshga faqat ma'lumot berishni maqsad qilmaydi, balki buyurish, iltimos qilish, va'da berish ogohlantirish kabi muayyan faoliyatni ham amalga oshirishga harakat qiladi. Shu ma'noda nutq bu harakatdir, ya'ni u shunchaki taklifning ifodasi sifatida emas, balki ijtimoiy kontekstdagi harakatning bir misoli sifatida qaraladigan jarayondir [2].

Tilshunoslikda nutqiy aktlar nazariyasi lisoniy birliklarni faqat semantik mazmun tashuvchi vosita sifatida emas, ijtimoiy-amaliy harakatni amalga oshiruvchi kommunikativ mexanizm sifatida talqin etiladi. Mazkur yo'nalish XX asrning ikkinchi yarmida pragmalingvistikaning shakllanishida muhim nazariy poydevorlardan biriga aylandi. Shundan so'ng mazkur sohaning nazariy va amaliy jihatlariga oid masalalar jahon tilshunosligida bir qator olimlar tomonidan atroflicha talqin etilgan. Jumladan, nutqiy faoliyatning funksional tabiati K. Byullerning organon modelida batafsil yoritilgan bo'lib, unda tilning ekspressiv, appelyativ va reprezentativ vazifalari alohida ajratib ko'rsatilgan [3.217.]. E. Benvenist esa nutq subyekti va adresat munosabatlarini tadqiq qilgan holda, shaxs kategoriyasi hamda deysis masalalarning pragmatik ahamiyatini asoslab bergan[4]. Rus tilshunosligida A.Romanov nutqiy ta'sir mexanizmi hamda muloqot strategiyalarini tahlil qilgan bo'lsa [5,41], V.Bogdanov nutqiy muloqotning kommunikativ modellarini ishlab chiqqan [6,29]. O'zbek tilshunosligida Sh.Safarov pragmalingvistika va nutqiy muloqot nazariyasining muhim qirralarini tadqiq qilgan. Shuningdek, olim o'zbek tilshunosligida pragmalingvistika va nutqiy aktlar sohasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. A. Muminov ishlarida muloqot madaniyati va kommunikativ strategiyalar masalasiga urg'u berilgan. A. Nurmonov til va tafakkur munosabati hamda funksional tilshunoslik yo'nalishida muhim nazariy xulosalarni taklif etganligi bilan izohlanadi[7]. Shuningdek, M.Hakimov matn pragmatikasi va diskurs tahlili masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Shu kabi ko'plab ushbu soha vakillari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni e'tirof etish mumkin, biroq nutqiy aktlar nazariyasining asoschisi sifatida J. Ostin tomonidan amalga oshirilgan ishlarni alohida e'tirof etish joiz. Xususan, olimning How to Do things with words (So'zlar bilan qanday munosabatda bo'lmoq lozim) asarida til vositasida voqelikni tasvirlash bilan birga amaliy harakat ham bajarilishi isbotlangan. Masalan, uzr so'rayman yoki ma'lum qilaman kabi birliklar shunchaki axborot berish emas, balki ijro etilgan harakatdir [8].

Muhokama. Ushbu tadqiqot ishimizning mazkur bo'limida asosiy e'tibor lingvotajamkorlikning nutqiy aktlar nazariyasi doirasida pragmatik ifodalanishini yoritishga qaratilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, eng avvalo, nutqiy aktlarning tasnifiy mezonlarini aniqlash zarur bo'ladi. Ya'ni nutqiy birliklarning lokutiv shakli, illokutiv maqsadi va perlokutiv ta'siri o'zaro munosabatda tahlil qilinishi lozimdir. Bu borada J. Ostinning yuqorida qayd etilgan How to Do things with words (So'zlar bilan qanday munosabatda bo'lmoq lozim) asari alohida o'rin turadi. Ostinning shu va shu kabi ilmiy asarlarida ilgari surilgan ilmiy g'oyalari negizida keyinchalik turli hajmdagi tilshunoslikka oid ko'plab ilmiy manbalar yaratilgan va soha doirasidagi aksariyat izlanishlar aynan ushbu olimning konseptual qarashlariga tayangan holda rivojlantirilgan. Olimning nazariyasiga ko'ra, nutqiy faoliyat jarayonida so'zlovchi va tinglovchining o'zaro munosabati, suhbat uchun tanlangan mavzu hamda unga oid so'zlovchining fikrini bayon etish usuli kabi shartlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u til birliklarining funksional mohiyatini aniqlash maqsadida har bir nutqiy hodisani quyidagi uch tartibli tizim sifatida ko'rsatadi[9]:

1. Locutionary act (lokutiv akt);
2. Illocutionary act (illokutiv akt);
3. Perlocutionary act (perlokutiv akt).

Lokutiv akt nutqning formal-lisoniy shaklda ifodalanishi, ya'ni fonetik, grammatik va leksik jihatdan tuzilgan gaplar bo'lsa, illokutiv akt esa so'zlovchi tomonidan gap orqali bajarilayotgan va'da berish, farmoyish berish kabi kommunikativ maqsadga urg'u beradi. Perlokutiv akt esa adresatda yuzaga keladigan ta'sir, reaksiya yoki amaliy natija bilan belgilanadi[10, 1-15]. Ya'ni so'zlovchi o'z

maqsadiga erishish uchun uning ijro etgan nutqi tinglovchiga ko'rsatadigan ta'siri perlokutiv akt deyiladi. Masalan, Bu yer sovuq jumlasining lokutiv mazmuni havoning sovuqligi haqidagi xabar bo'lsa, illokutiv maqsadi derazani (eshikni) yoping yoki isitgich qurilmasini yoqing kabi birliklardan iborat bo'lishi mumkin. Perlokutiv natija esa adresat o'ziga yo'naltirilgan harakatni amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

Nutqiy aktlar nazariyasida illokutsiya tushunchasi markaziy va keng qo'llanuvchi kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ayrim tadqiqotlarda illokutiv akt bevosita nutqiy harakatning funksional muqobili sifatida talqin etiladi[11,35]. Chunonchi, J. Syorl ta'kidicha, nutqiy akt tuzilmasining asosiy yadrosini aynan illokutiv akt tashkil etadi va ayrim holatlarda u nutqiy akt atamasining ekvivalenti sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Illokutiv harakatning bevosita ijrochisi muloqot subyekti, ya'ni so'zlovchi sanaladi. Perlokutiv akt esa nutqiy akt strukturasi dastlabki bosqichi bo'lgan lokutiv akt hamda ikkinchi bosqichni tashkil etuvchi illokutiv aktdan sezilarli darajada farq qiladi. Uning mohiyati nutq orqali tinglovchiga muayyan ta'sir ko'rsatish va unda ruhiy emotsiyanal reaksiyani yuzaga keltirish bilan belgilanadi[12].

Boshqacha aytganda, so'zlovchi tinglovchiga "A" deb murojaat qilish orqali "B"ni bajarishga ishora qiladi, ya'ni suhbatdosh "A"ni emas, balki "B"ni bajarish uchun reaksiya bildiradi[13,19]. Mazkur jarayon lingvotekjamkorlikning nutqiy aktlar doirasida pragmatik voqelanishini yoritishda alohida ahamiyatga egadir. Zero, tilda tekjamkorlik tamoyiliga muvofiq holda lokutiv shakl qisqa yoki elliptik ko'rinishda namoyon bolsa-da, uning illokutiv kuchi va perlokutiv ta'siri saqlanib qoladi.

Demak, tekjamkorlik nutqiy aktlar doirasida asosan lokution akt bosqichida namoyon bo'lish holatlarini kuzatish mumkin. Chunki siqilish, qisqarish va ellipsis ifoda avvalo gapning tashqi verbal shakliga taalluqlidir. Ya'ni ma'no to'liq ifodalanadi, ammo kam miqdordagi til vositalari bilan kodlanadi, jumla shaklan qisqartirgan holda, uning pragmatik mazmunini kontekst, presuppozitsiya va nutq bilan bog'liq vaziyatlar orqali to'ldiradi. Misol uchun, oddiygina choy issiq jumlasining o'zi muayyan muloqot sharoitida ehtiyot bo'lib iching, asta qabul qiling, qo'lingiz yoki oyog'ingiz kuyib qolmasin kabi illokutiv mazmuni anglatib, tinglovchini amaliy harakat ijrosini ta'minlashga undaydi. Ya'ni, choy issiq, uni ehtiyot bo'lib qabul qiling, biror a'zoingiz kuymasin kabi mukammal ko'rinishdagi sintaktik tuzilmada ifodalanishi mumkin bo'lgan mazmun qisqartirilgan ko'rinishda verballashadi. Ushbu vaziyatda gap tarkibidagi ayrim yondosh komponentlarning tejalishi natijasida lokutiv shakl minimallashtirilsa-da, illokutiv kuch saqlanib qoladi hamda perlokutiv ta'sir tinglovchining ehtiyotkor harakati orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, mazkur holat tekjamkorlikning pragmatik ko'rinishining namunasi sifatida kam sonli til birliklari yordamida keng kommunikativ mazmun va kutilgan amaliy natija yuzaga chiqarilgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida poetik matnda lingvotekjamkorlikning nutqiy akt tarkibida namoyon bo'lish bosqichlarini quyidagich tasniflash mumkin:

1- jadval.

Lingvotekjamkorlikning nutqiy akt tarkibida namoyon bo'lish bosqichlari

Nutqiy akt komponenti	Nazariy ta'rif	Lingvotekjamkorlikdagi ko'rinish	Natija
Lokutiv akt	Gapning tashqi verbal shakli	Qisqarish, ellipsis, implisitlik	Shakliy minimallashtirish
Illokutiv akt	So'zlovchining kommunikativ maqsadi	Yashirin buyruq, iltimos ...	Pragmatik kuch saqlanadi
Perlokutiv akt	Adresatdagi ta'sir	Kognitiv faoliyat	Kommunikativ samaradorlik

Ma'lumki, nutqiy aktlar nazariyasining asoschisi J. Ostin ilk bor nutqiy aktlarni tizimli ravishda tasniflash g'oyasini ilgari surgan olim sifatida e'tirof etiladi. U o'zining yuqorida tilga olingan How to Do things with words[14] (So'zlar bilan qanday munosabatda bo'lmoq lozim) asarida nutqiy harakatlarni quyidagi besh asosiy guruhga ajratadi:

1. Verdikativlar – qaror qabul qilish yoki hukm chiqarish;
2. Ekzersitivlar – maslahat berish, ogohlantirish kabilar;
3. Komissivlar – majburiyatlar: ont ichish, va'da berish kabi;
4. Behavitivlar – muayyan faoliyatga munosabat: dalda berish kabi;
5. Ekspozitivlar – o'z fikriga izoh berish va oydinlik kiritish kabi.

Ostin tasnifi negizida, asosan, ingliz tilidagi performativ fe'llar tizimi yotadi. Chunki promise (va'da bermoq), order (buyurmoq), advise (maslahat bermoq) kabi fe'llar muloqot jarayonida bayon etilayotgan fikrning illokutiv kuchini aniqlashga xizmat qiladi. Misol uchun, I promise to call you Senga qo'ng'iroq qilishga va'da bera-man) jumlasining o'ziyoq promise (va'da bermoq) fe'li komissiv akti yuzaga chiqaradi, boshqacha aytganda, adresant muayyan majburiyatni o'z zimmasiga oladi.

Biroq mazkur tasnif keyinchalik bir necha bor tanqidlarga uchraydi. Chunonchi, J. Syorl nutqiy aklarni faqat illokutiv fe'llar bilan tenglashtirish yoki ularni qorishtirib talqin qilish nazariy jihatdan asosli emasligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, nutqiy akt bu muloqot jarayonida voqelanadigan kommunikativ harakat bo'lib, leksik tizimda mavjud bo'lgan illokutiv fe'llar esa ushbu harakatning leksik ifodasidir, xolos[15,69]. Demak, har qanday nutqiy akti albatta muayyan performativ fe'l orqali ifodalash shart emas. Aynan shu nuqta til tejamkorligining nutqiy akt sifatidagi pragmatik maqomini anglash imkonini beradi. Zero, nutq ijrochisi ko'pincha illokutiv maqsadni to'liq grammatik shaklda emas, balki qisqa implisitlik yoki kontekstga tayangan holda ifodalaydi. Bunda nutqiy akt shaklan tejalsa-da, pragmatik kuchi saqlanadi.

Misol uchun, ingliz tilida It's cold here (Bu yer sovuq) jumlasining formal mazmuni havoning sovuqligini bildirsa-da, muayyan vaziyatda u Please, close the window (Iltimos, derazani yoping) kabi illokutiv maqsadni anglatishi ham mumkin. Bu vaziyatda buyruq yoki iltimos ochiq ifodalanmagan, ammo adresat kontekst va muloqot muhitiga tayangan holda nutq intensiyasi ishora qilayotgan harakatni amalga oshirishga kirishadi. Demak, lo'nda deklorativ jumla vositasida keng kommunikativ mazmun aks etmoqda.

J. Syorl J.Ostin nazariyalarini rivojlantirgan holda, nutqiy aktlar markazida ayniqsa illokutiv kuch turganini ta'kidlaydi va nutqiy aklarni quyidagi guruhlariga ajratadi:

1. Assertivlar – xabar berish, tasdiqlash;
2. Direktivlar – buyurish, iltimos qilish;
3. Komissivlar – va'da berish;
4. Ekspressivlar – minnatdorchilik, uzr, tabrik;
5. Deklarativlar – holatni o'zgartirish.

Mazkur tasnif ham, yuqorida qayd etilgan J. Ostin tomonidan tasniflangan guruhlar kabi, til tejamkorligini pragmatik jihatdan tadqiq etish uchun muhimdir. Chunki qisqa, implisit yoki elliptik shakllarda ifodalangan ko'plab lisoniy birliklar aynan illokutiv maqsadni ifodalaydi. Zero, tejamkorlik nutq jarayonida kontekstga tayanish hamda implisit ma'no yaratish kabi usullarda namoyon bo'ladi. Ushbu hodisa nutqiy aktlar nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, asosan lokutiv shaklning qisqarishi, biroq illokutiv kuch ta'sirining saqlanishi orqali tavsiflanadi.

Shuningdek, nutqiy aktlar nazariyasida bevosita va bilvosita nutqiy aktlar tushunchasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur hodisalar nutqiy ifoda shakli hamda nutq ijrochisining kommunikativ maqsadi o'rtasidagi munosabatni ochib berishga imkon beradi. Bevosita nutqiy aktlarda jumalarning struktur va grammatik ko'rinishi uning illokutiv maqsadiga to'liq mos kelishi mumkin. Misol uchun, Vaqtida keling birligi buyruq maylida shakllangan bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri adresatni muayyan harakat ijrosini ta'minlashga undaydi va bunday turdagi gaplarda lokutiv mazmun hamda pragmatik vazifa o'rtasida ziddiyatlar kuzatilmaydi.

Biroq, bilvosita nutqiy aktlarda esa nutqning formal ko'rinishi hamda kommunikativ maqsad o'rtasida muayyan tafovutlar kuzatiladi. Misol uchun, Ancha kech tushib qoldi jumlasini formal-stilistik jihatdan kommunikativ maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, Ushbu darak gap muayyan vaziyatda kech bo'lib qoldi, uyga qaytaylik yoki ichkariga kiraylik kabi taklif yoki buyruq mazmunidagi harakatga ishora qilishi mumkin. Demak, bunday holatlarda adresat gapning yuzaki mazmuni emas, balki kontekst, prosuppozitsiya hamda muloqot muhitiga tayangan holda

tagma'noli implisit kuch ta'sirini anglyaydi. Shu jihatdan ham bilvosita nutqiy aktlar tilning pragmatik imkoniyatlarini ochib beruvchi muhim lisoniy vositalardan hisoblanadi. Ayniqsa, bu turdagi nutqiy aktlarda lisoniy tejamkorlik tamoyili yaqqol seziladi, ya'ni adresant o'z maqsadini bevosita emas, balki bilvosita, qisqa usullar bilan ifodalashga harakat qiladi va kam miqdordagi birliklar vositasida nutqning muloyim, madaniy hamda ta'sirchan ko'rinishda ifodalanishiga zamin yaratadi. Ushbu holat ayniqsa poetik matnda ustuvorlikka ega. Chunki poetik diskursda nutqiy tejamkorlik faqat lisoniy shaklning qisqarishi emas, balki ma'noning semantik hamda pragmatik zichlashuvi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, poetik matnda tejamkorlikning eng faol va samarali vositalaridan biri ellipsis hisoblanadi. Elliptik konstruksiyalarda gapning ayrim sintaktik komponentlar tushirib qoldiriladi, ammo biroq ulardan anglashiladigan ma'no umumiy kommunikativ vaziyat asosida tiklanadi. Ushbu vaziyatda lokutiv struktura minimallashtirishda, illokutiv kuch hamda perlokutiv ta'sir yanada kuchayadi.

Ellipsis va til tejamkorligi turli tillarda, jumladan ingliz va o'zbek she'riyatida ham umumiy pragmatik qonuniyat sifatida namoyon bo'ladi va ushbu holat badiiy nutqning ixcham, ammo emotsional hamda semantik jihatdan zich ifodalangan matnga aylantirishga imkon beradi. Qiyoslang:

Ingliz tilida:

I wandered lonely as a cloud...
(W. Wordsworth, "Daffodils")
Bulut kabi yolg'iz kezardim...

Ravshanki, gap grammatik jihatdan to'kis emas, semantik jihatdan esa kim bilan, qayerga kabi ko'plab komponentlar ochiq aytilmagan. Aynan mana shunday bo'shliqlar o'quvchi tasavvurini faollashtiradi va ularning o'rni to'ldirish vazifasi adresat tafakkuriga yuklanadi.

O'zbek tilida:

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuproq'in ko'zimga aylab to'tiyo.

(A. Oripov, "Men nechun sevaman O'zbekistonni?")

Ushbu parchada grammatik jihatdan to'liq sintaktik tuzilma ochiq berilmagan, ya'ni savolning davomi va asosiy izoh qismi implisit holatda taqdim etilgan. Biroq, aynan mazkur qisqarish yordamida kuchli emotsional-pragmatik ta'sir yuzaga chiqqan, ya'ni she'riy savol shakli orqali vatanga muhabbat va faxr kabi illokutiv ma'nolar bilvosita aks ettirilgan.

Shuningdek, nutqiy aktlar nazariyasi doirasida sukut hamda pauza ham alohida pragmatik kategoriya sifatida muhim o'rin egallaydi. Ilmiy manbalarda nutqiy akt faqat verbal ifoda bilan cheklanmaydi, unda tilga olinmagan elementlar ham kommunikatsiyaning funksional qismi sifatida namoyon bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotlar mavjud [16,60]. Shu ma'noda, poetik matnda tez-tez uchraydigan jumla yakunidagi uch nuqta (...), misralardagi uzilishlar va graffik pauza hamda sintaktik jihatdan tugallanmaganlik ko'p hollarda to'liq gap vazifasini amalga oshiradi. Masalan:

Ingliz tilida:

"Hope" is the thing with feathers –,
That perches in the soul –.
(E. Dickinson, "Hope")
"Umid" bu patdek bir jism...
U ruhda qo'nib turadi...

Ushbu misralarda tire (–) jumlaning sintaktik jihatdan yakun topishini kechiktirgan va o'quvchini ma'nodagi bo'shliqni to'ldirishga majbur qiladi. Natijada, "Hope" (Umid) tushunchasi ochiq ta'rif emas, interpretasion makonga aylangan. Mazkur holat sukut illokutiv kuch ta'sirini pasaytirmaydi, aksincha, uni yanada faollashtirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilida:

Faryodim ichimda, otma gulingni...
Otma yolg'izlikdan – baxtli qulingni.
(Rauf Parfi, "Sensiz")

Mazkur jumlalarda lirik qahramonning ichki holati ochiq bayon qilinmagan, ammo u shikoyat, iltijo va ogohlantirish shaklida yashirin tarzda ifodalangan.

Poetik matnda ifodalanuvchi ko‘plab ruhiy-emotsional holatlar J. Syorl tomonidan ishlab chiqilgan tasnifda asosan ekspressiv lokutiv aktlar doirasiga mansub bo‘lsa, bu turdagi nutqiy aktlar so‘zlovchining ichki psixologik holatlarini, xususan, shodlik, hasrat, afsus kabi emotsiyalarni verbal tarzda voqelantirishga xizmat qiladi. Bunda nutqning asosiy vazifasi axborot uzatish emas, subyektiv kechinmalarni ifodalash hamda adresatga bevosita emotsional ta‘sir ko‘rsatishdan iborat bo‘ladi.


Shu bilan birga, poetik matnda keng qo‘llaniladigan bilvosita nutqiy ifoda, ya‘ni inderektlik ko‘p hollarda direktiv illokutiv aktlar bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, grammatik jihatdan ekspressiv shaklda berilgan birlik pragmatik jihatdan buyruq yoki iltimos kabi harakatga undash vazifasini ham bajarishi mumkin. Bunda nutqiy aktning formal tuzilishi va uning kommunikativ maqsadi o‘rtasida bevosita mutanosiblik kuzatilmaydi. Demak, ekspressivlik asosan ichki hissiy holatlarni ifodalasa, bilvositalik esa direktiv illokutsiya ta‘sirini yashirin voqelantirishga xizmat qiladi.

P. Grays tomonidan ishlab chiqilgan “hamkorlik tamoyili”ga ko‘ra, so‘zlovchi ko‘p holatlarda o‘z nutqida barcha ma‘noni bevosita ifodalashdan cheklanadi va adresat uni mantiqiy xulosalar yordamida aniqlashga harakat qiladi [17,45-47]. Bu haqda oldingi bobda batafsil to‘xtalgan edik (oldingi bo‘limga qarang). Misol uchun, Yana xato qilding jumlasidan tinglovchining oldin ham xato qilish holatlari mavjud bo‘lgani anglashiladi va birgina gap yordamida tanbeh, norozilik va intizomga chaqirish kabi holatlar yashirin tarzda aks ettiriladi. Poetik nutqda adresat interpretatsiyasi yanada faollashadi, ya‘ni muallif nutqidagi barcha ma‘no tayyor holda ifodalanmaydi va adresant uni qayta yaratishi va his eta olishi lozim bo‘ladi. Masalan, Darvoza ochiq gapida kontekstga ko‘ra kimdir uyga kirganligi yoki chiqib ketganligi, kuchli shamol bo‘lganligi kabi mazmunlarga ishora qilishi mumkin. Demak, lingvotekjamkorlik adresatning kognitiv ishtirokini talab etadigan hodisa hisoblanadi.

Demak, nutqiy aktlar doirasida lingvotekjamkorlik darajasini quyidagicha izohlash mumkin:

1- diogramma.

Nutqiy aktlarda lingvotekjamkorlik darajasi



Mazkur diogrammada aks etgan ma‘lumotlardan ma‘lumki, nutqiy aktlarda lingvotekjamkorlik lokutiv komponent reduksiyasiga munosib ravishda o‘zgarib boradi. Ya‘ni verbal ifodalarning ishtiroki pasaygan sari illokutiv implisitlik, perllokutiv ta‘sir hamda estetik qiymat ortib boradi.

Xulosa. Tadqiqot jarayonida olib borilgan nazariy hamda amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, til tekjamkorligi nutqiy aktlar nazariyasi doirasida asosan lokutiv bosqichda namoyon bo‘lsa-da, uning asosiy qiymati illokutiv kuchning saqlanishi va perllokutiv ta‘sirning yuzaga chiqishida voqelanadi. Xususan, direktiv nutqiy aktlar, ya‘ni bilvositalikda adresat matn mazmunini kontekst va muloqot muhiti orqali anglashi natijasida tekjamkorlikning pragmatik imkoniyatlari kengayib boradi. Poetik matnda esa ellipsis, pauza, sukut va ramziy ifodalar mazkur holatning yetakchi ko‘rinishlari sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, poetik nutqda tekjamkorlik til iqtisodiyotini ta‘minlash bilan

cheklanmay, estetik va emotsional ta'sirchanligini sayqallash imkonini beradi. Demak, lingvotekjamkorlik yashirin illokutiv kuchni saqlagan holda, perlokutiv ta'sirni ta'minlovchi hamda poetik matnning badiiy-pragmatik qudratini oshiruvchi murakkab lisoniy kategoriya bo'lib, uni nutqiy aktlar nazariyasi asosida o'rganish poetik matn tabiatini yanada chuqurroq anglashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – Москва: Прогресс, 1974. – Б. 288.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Speech_act
3. Bühler K. Sprachtheorie. Jena: Fischer, 1934. – P. 35.
4. Benveniste É. Problems in General Linguistics. Miami: University of Miami Press, 1971. – P. 217.
5. Романов А.А. Прагматика речевого общения. Москва, 1988. – P. 41.
6. Богданов В.В. Речевое общение. Ленинград, 1990. – P. 29.
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, 2008. – Б. 104.; Муминова А. Мулокот маданияти ва тил. Тошкент, 2010. – Б.57.; Нурмонов А. Функционал тилшунослик асослари. Тошкент, 2012. – Б.81.
8. Austin J.L. How to Do things with words. Oxford: Clarendon Press, 1962.
9. Austin J.L. How to Do things with words. Oxford: Clarendon Press, 1962.
10. Austin J. L. How to Do things with words. Oxford: Clarendon Press, 1962. – P. 1-15.
11. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.; Wunderlich D. Studien zur Sprechakttheorie. Frankfurt am Main, 1976. – P. 56.; Почепцов Г. Г. Теория речевых актов. Киев: Вища школа, 1986. – P.35.
12. Ачилова О. Ф. Прохибитив ва пермиссив актларнинг диалогик нутқда воқеланиши. Фил.фан.фалс.докт. (PhD) ... diss. – Ташкент, 2022. – 217 б.
13. Ачилова О. Ф. Прохибитив ва пермиссив актларнинг диалогик нутқда воқеланиши. Фил.фан.фалс.докт. (PhD) ... diss. – Ташкент, 2022. – 19 Б.
14. Austin J.L. How to Do things with words. Oxford: Clarendon Press, 1962.
15. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – P. 69.
16. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – P. 60.
17. Grice H.P. Logic and Conversation. New York: Academic Press, 1975. – P. 45–47.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000